



Development of women's sports in the first years of independence (on the example of Navoi region)

Gulchekhra ERGASHEVA¹

Navoi State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

15 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

women's sports,

boxing,

judo,

wrestling,

Olympic Games,

World Championship,

Spartakiad,

sports tournament

“Gold of Kyzylkum.”

ABSTRACT

This article analyzes the attention given to women's sports in the Navoi region during the early years of independence, along with the achieved results and existing challenges. It highlights the proportion of women participating in sports within physical culture and sports teams, labor teams, and the results achieved by women and girls involved in various sports disciplines under BOSMS.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss10/S-pp549-553>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mustaqillikni dastlabki yillarida xotin qizlar sportining rivojlanishi (Navoiy viloyati misolida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

xotin-qizlar sporti,

BO'SM, dzyu-do,

kurash,

Olimpiya o'yinlari,

jahon chempionati,

spartakiada,

“Qizilqum oltini” sport

turniri

Ushbu maqolada mustaqillikni dastlabki yillarida Navoiy viloyatida xotin qizlar sportiga qaratilgan e'tibor, erishilgan natijalar, mavjud muammolar tahlil qilinadi. Jismoniy madaniyat va sport jamoalarida, mehnat jamoalarida sport bilan shug'ullanuvchilar orasida ayollar ulushi, BO'SMlarda sportning turli yo'nalishlarida shug'ullanayotgan xotin qizlar erishgan natijalar yoritib berilgan.

¹ Lecturer, Department of History, Navoi State Pedagogical Institute.

Развитие женского спорта в первые годы независимости (на примере Навоийской области)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

женский спорт,
бокс,
дзюдо,
борьба,
Олимпийские игры,
чемпионат мира,
спартакиада,
спортивный турнир
«золото Кызылкума»

В данной статье анализируется внимание к женскому спорту в Навоийской области в первые годы независимости, достигнутые результаты и существующие проблемы. Освещается доля женщин среди занимающихся спортом в физкультурно-спортивных командах и трудовых коллективах, а также результаты, достигнутые женщинами в различных видах спорта.

O'zbekiston Respublikasi barcha sohalarda o'z salohiyatini jahon miqyosida yil sayin mustahkamlab borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning bilimdon, ma'naviy va jismoniy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Bu o'rinda xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, millat genofondini yanada sog'lomlashtirish, barkamol avlodni tarbiyalash borasida jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish ahamiyati davlat siyosatining ustuvor yunalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining 48-moddasida "Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi" deb belgilab qo'yildi. Malumki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish odam organizmini har tomonlama jismonan rivojlanishi va mustahkamlanishi, fiziologik funksiyalarning takomillashtirishi va sog'lomlashtirishga olib keladi. Yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni taminlamoqda.

1992-yil Navoiy viloyati qayta tashkil etilgan vaqtda 615 ta korxonalar, tashkilotlar, ta'lim muassasalarida 351024 nafar kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullangan. Ularning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam ravishda tizimli shug'ullanuvchilar soni 167630 nafarni tashkil etgan. Ularning 45041 nafari xotin-qizlardan iborat bo'lgan. Bu tarkibning 42497 nafari umumta'lim maktablarida, 997 nafari hunar texnika maktablarida, 846 nafari ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, 75 nafari oliy ta'lim muassasalarida, 626 nafari mehnat jamoalarida mashg'ulot o'tashgan. Sport bilan shug'ullanuvchi xotin-qizlar umumiy sonining 41005 nafari qishloq joylaridagi (albatta bu raqam qishloq joylaridagi maktab o'quvchilari salmog'i hisobiga kattalashgan, dissertant) kishilar tashkil etgan.

1994-yilga kelib aksariyat jismoniy tarbiya jamoalarida sport instruktorlari shtatlari qisqartirildi. Shusiz ham ayniqsa, qishloq joylarida xotin-qizlar sporti bo'yicha oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislarning yetishmasligi, yetarli darajada mablag' ajratilmasligi, sportchilarni rag'batlantirilmasligi kabi muammolar girdobida turgan sohani yanada qiyin ahvolga solib qo'ydi. Bu esa o'n yillar davomida xotin-qizlar sportini

bir joyda deysinib turishiga, rivojlanmasligiga sabab bo'ldi. Shunga qaramasdan xotin-qizlar sporti qishloq joylariga nisbatan shahar joylarida ancha rivojlandi. Xususan, Navoiy shahridagi BO'SM VA IBO'SMlarda qizlar voleybol, badiiy gimnastika, kurash, og'ir atletika, suzish, sambo kabi sport turlari bilan muntazam shug'ullanib bordilar. BO'SM VA IBO'SM tarbiyalanuvchilari asosan, suzish, badiiy gimnastika, voleybol kabi sport turlari bo'yicha respublika miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda yakka yoki jamoa tarzida sovrinli o'rinlarni egalladilar. Jumladan, Navoiy viloyatining qizlar jamoasi 1994-yil suzish bo'yicha respublika chempionatida 2-o'rinni, masofali suzish bo'yicha respublika chempionatida 2-o'rin, badiiy gimnastika bo'yicha respublika chempionatida 2-o'rinni egallashdi. Navoiylik xotin-qizlarning erishgan yutuqlari ijobiy baholanib, suzish sportidan 4 kishi, suvga sakrash sportidan 3 kishi, sambo sportidan 1 kishi, voleybol sportidan 2 kishi respublika terma jamoalari tarkibiga qabul qilindi.

Xotin-qizlar sportini rivojlanishiga viloyatdagi yirik korxonalar tomonidan ba'zi sport turlari bo'yicha musobaqalarni tashkillashtirishi va moliyalashtirilishi muhim omil bo'lib xizmat qildi. Xususan, Navoiy kon metallurgiya kombinati tashabbusi bilan Navoiy shahrida "Qizilqum oltini" xalqaro turniri tashkillashtirilib, unda MDH davlatlaridan kelgan sportchilar sport ustasi va sport ustaligiga nomzodlik uchun bellashganlar. "Qizilqum oltini" an'anaviy turniri 1988-yildan beri o'tkazilib, 1995-yildan xalqaro darajaga ega bo'lgan. 1996-yili badiiy gimnastika bo'yicha ayollar o'rtasidagi xalqaro turnirga Rossiya, Qozog'iston, Turkmaniston, Ukraina va Qirg'iziston yoshlari ishtirok etdi. Ushbu musobaqada turli davrlarda Yevropa, jahon va Olimpiya o'yinlari chempioni bo'lgan Alina Kabayeva, Yana Batirshina, Amina Zaripova kabi mashhur gimnastikachilar ishtirok etgan... Navoiy viloyatining 12–15 yoshli qizlardan iborat gimnastikachilar jamoasi 1996-yili Italiyaning Redjo-nel' Emiliya shahrida Italiya milliy bayrog'i yaratilishining 200 yilligiga bag'ishlangan turnirda muvaffaqiyatli qatnashdi. Italiya televideniyesi ko'rsatuvlari va gazetalarida navoiylik sportchilarning muvaffaqiyati haqida bong urishdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng sportning turli sohalarida xotin-qizlar o'rtasidagi musobaqalar tashkil etilib borildi. Bu musobaqalarda Andijon, Buxoro, Navoiy, Farg'ona viloyatlari hamda Toshkent shahri vakillaridan iborat bo'lgan jamoalar ko'plab g'oliblik shohsupalariga ko'tarilib, yetakchilik qilishgan. Chunonchi, badiiy gimnastika sport turi bo'yicha 1996 yil may oyining birinchi dekadasida Xotin-qizlar o'rtasidagi I spartakiada o'tkazildi. Badiiy gimnastika bo'yicha o'tkazilgan I spartakiadada turli viloyatlardan kelgan sakkizta jamoa o'zaro bellashib, musobaqa g'olibligi Toshkent shahriga nasib etgan bo'lsa, ikkinchi va uchinchi o'rinlarni mos ravishda Buxoro va Navoiy viloyatlari jamoalari egalladi. 1996-yil 12–15-mart kunlari Samarqand shahrida dzyu-do sport turi bo'yicha o'rta yoshli ayollar o'rtasida respublika birinchiligi o'tkazildi. Mazkur musobaqada ishtirok etayotgan 45 nafar xotin-qizlar qatorida Navoiy viloyatidan S.Atamurodova ham muvaffaqiyatli qatnashdi.

1996-yil 17-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va printsiplarini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 27-son qarorini qabul qilinishi Navoiy viloyatida ayollar futbolini rivojlanishiga turtki bo'lib, xotin-qizlar futbol jamoalari tashkil etila boshlandi. Xotin-qizlar jamoalari o'rtasida viloyat kubogi tashkil etilib, bu musobaqalarida 12 ta jamoa ishtirok etdi. Bu jamoalar ichida "G'uncha" "Guli" kabi ayollar jamoasi yetakchilik qilishdi.

XX asr so'nggi o'n yilligida respublikaning ko'pgina viloyatlari qatorida Navoiy viloyatida ham qizlar o'rtasida dzyu-do sport turi bir muncha ommalashdi. 1996-yil 12–15-mart kunlari Samarqand shahrida dzyu-do sport turi bo'yicha 1981–1983-yillarda tug'ilgan qizlar o'rtasida respublika birinchiligi o'tkazildi. Ushbu bellashuvlarda 33 kilogramgacha og'irlikdagi qizlar bahsida Jamila Shamilova 3-o'rinni, 36 kilogramgacha og'irlikdagi qizlar bahsida Lyudmila Kojemyakina 1-o'rinni, O'lg'a Qo'ldosheva 4-o'rinni, 45 kilogramgacha og'irlikdagi qizlar bahsida Mariya Kojemyakina 5-o'rinni, 51 kilogramgacha og'irlikdagi qizlar bahsida Yelena Cherginskaya 4-o'rinni, O'lg'a Balakirova, Nastya Malixinalar 5-6-o'rinlarni, 57 kilogramgacha og'irlikdagi qizlar bahsida Oksana Koren'ko 3-o'rinni egallab yuqori natijalarni ko'rsatishdi. 1997-yili "Guli" xotin-qizlar futbol jamoasi Respublika birinchiligida ishtirok etib, musobaqada 4-o'rinni egalladi. Ayni shu yilning o'zida Buxoro shahrida o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi kubogida "Guli" futbol jamoasi 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Bunday yutuqlar ortidan jamoaning 4 nafar futbolchi qizlari Respublika terma jamoasi safiga taklif etildi. Ayollar futbolini ommalashtirish maqsadida 14 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar futbol klublariga jalb qilina boshlandi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida xotin-qizlar sporti ichida stol tennisi Navoiy viloyati nomini jahon miqyosiga olib chiqdi. Stol tennisi bo'yicha tengsiz sportchi Manzura Inoyatova dastlab 1997-yili Hindistonda o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan Osiyo birinchiligida qatnashib, o'ziga xos tajriba orttirdi. 1998-yili Moskva (Rossiya) shahrida Butunjahon o'smirlar o'yinlarida Saida Burxonxo'jayeva bilan hamkorlikda Manzura Inoyatova tennis sport turidan bronza medalni qo'lga kiritdi. 1999-yili mohir tennis ustasi Manzura Inoyatova Stokgolm shahrida (Shvetsiya) o'tkazilgan Jahon o'yinlari va Germaniyada bo'lgan Yevropa ochiq kubogi g'olibi deb topilib, shohsupaning yuqori pog'onalarini egalladi. Stol tennisi bo'yicha yoshlar o'rtasida jahon chempioni bo'lgan Manzura Inoyatova tufayli Xatirchi tumani markazida tennis korti qurildi. Unda zamonaviy kort va hakamlar, tomoshabinlar uchun o'rindiqlar o'rnatilishi tumanda tennis sport turining yanada rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Xotin-qizlar sportini rivojlanishiga viloyatdagi yirik korxonalar tomonidan ba'zi sport turlari bo'yicha musobaqalarni tashkillashtirishi va moliyalashtirilishi muhim omil bo'lib xizmat qildi. Xususan, Navoiy kon metallurgiya kombinati tashabbusi bilan Navoiy shahrida "Qizilqum oltini" xalqaro turniri tashkillashtirilib, unda MDH davlatlaridan kelgan sportchilar sport ustasi va sport ustaligiga nomzodlik uchun bellashganlar. "Qizilqum oltini" an'anaviy turniri 1988-yildan beri o'tkazilib, 1995-yildan xalqaro darajaga ega bo'lgan. 1996-yili badiiy gimnastika bo'yicha ayollar o'rtasidagi xalqaro turnirga Rossiya, Qozog'iston, Turkmaniston, Ukraina va Qirg'iziston yoshlari ishtirok etdi. Ushbu musobaqada turli davrlarda Yevropa, jahon va Olimpiya o'yinlari chempioni bo'lgan Alina Kabayeva, Yana Batirshina, Amina Zaripova kabi mashhur gimnastikachilar ishtirok etgan. Navoiy viloyatining 12–15 yoshli qizlardan iborat gimnastikachilar jamoasi 1996-yili Italiyaning Emiliya shahrida Italiya milliy bayrog'i yaratilishining 200 yilligiga bag'ishlangan turnirda muvaffaqiyatli qatnashdi. Italiya televideniyasi ko'rsatuvlari va gazetalarida navoiylik sportchilarning muvaffaqiyati haqida bong urishdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mustaqillikni dastlabki yillarida mamlakatda iqtisodiy qiyinchiliklar bo'lib turgan bir paytda, sportning turli sohalariga qaratilgan e'tibor yurtimizni keyingi yillarida jahon arenalarida munosib o'rin egallashiga zamin yaratib berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Тошкент: Ўзбекистон, 2023. 2.Б.
2. Norqobilov M. Jismoniy tarbiya va sport. –Toshkent: Vneshinvestprom, 2022.
3. Navoiy viloyati davlat arxivi. 66-fond, 1-ro'yxat, 55-yig'ma jild.
4. Navoiy viloyati davlat arxivi. 66-fond, 1-ro'yxat, 50-yig'ma jild.
5. Ветштейн Л. Наш «Навоимаш» – Ташкент.: Изд-во народного наследия им. Абдуллы Кадыри, 1998. – Б. 216.
6. Омонова С. Ўзбекистонда хотин-қизлар спортининг йўлга қўйилиши ва ривожлантириш тарихи (1991-2021 йй) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2022. -Б.16.